



**Starlink стал доступен на всех континентах земли**

5-стр.



**iPhone 14 narxi tushib ketdi**

6-бет.



**Qaysi tish pastalari salomatlik uchun xavfli?**

8-бет.



ict.xabar.uz

Gazeta 1992-yil martdan chiqa boshlagan

# Xabar

ERUR SEN SHOH, AGAR OGOHSEN SEN, AGAR OGOHSEN SEN, SHOHSEN SEN.

**38 (1564)-son**  
**23-sentabr**  
**2022**

@xabaruzofficial  
facebook.com/xabar.uz/  
@xabaruzofficial

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI NASHRI

www.xabar.uz

## Navoiyda Inkubatsiya va akseleratsiya markazi

Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada yaxshilash maqsadida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida Inkubatsiya va akseleratsiya markazi tashkil etildi.

Ushbu markaz oliy ta'lim muassasasida dasturlashtirish ko'nikmalarini o'rganish, startap loyihalar ustida jamoaviy ishlash, dasturiy mahsulotlar eksportini kengaytirish hamda IT-Park rezidentlari bilan hamkorligini rivojlantirish va mahalliy shart-sharoitlarga mos dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqishga qaratilgan muhim yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Markazning ochilish marosimida universitetning professor-o'qituvchilari ilmiy tadqiqot hamda innovatsion loyihalari va dasturiy ishlanmalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida olib borayotgan ishlari to'g'risida taqdimotlar o'tkazdi.

## Ko'kdalada IT-Park

**Qashqadaryo viloyatida AKT sohasida xizmatlar ulushini ko'tarish, yoshlarga yuqori daromadli yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim qadam tashlandi**



## Raqamlashtirishning ilg'or tajribalari muhokama qilindi

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligida Mastercard Yevroosiyo hududiy boshqarmasi rahbariyati bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.



Yig'ilishda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining birinchi o'rinbosari Oleg Pekos, Mastercard kompaniyasining Sharqiy Yevropa bo'limi prezidenti Yasemin Bedir hamda raqamli to'lov tizimlari sohasidagi bir qator mutaxassislar ishtirok etdi.

Muzokaralar davomida aholining raqamli va moliyaviy savodxonligini oshirish, moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish sohasida ilg'or tajriba almashish, shuningdek, mamlakatimizda elektron

tijoratni rivojlantirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish kabi yo'nalishlarda hamkorlik bo'yicha qator takliflar muhokama qilindi.

Ma'lumot uchun, dastlab tomonlar O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat ekotizimini rivojlantirish, kichik va o'rta biznes salohiyatini oshirish, shuningdek, potensial hamkorlik platformasini, jumladan, onlayn to'lov platformasini yaratish masalalarini muhokama qilib, memorandum imzolagan edi.

## MOBIL TO'LOV SERVISLARI

(Foydalanuvchilari soni bo'yicha, mln. nafar, 2021-yil)

1. Alipay — 1 671,7
2. Apple Pay — 808,3
3. Google Pay — 757,5
4. PayPal — 458,3
5. Amazon pay — 183,4
6. Samsung pay — 132,6



Manba: Statista



Jumadan  
Jumagacha

Joriy yil 16 sentabr kuni Samarqanddagi "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turistik majmuasi Kongress markazida Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi bo'ldi. Samarqand sammiti kun tartibiga muvofiq, davlat rahbarlari ShHT doirasidagi hamkorlikning bugungi holati va istiqbollarini muhokama qildilar, mintaqada yuzaga kelayotgan siyosiy va iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 sentabr kuni mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda turizm bo'yicha hududlardagi ishlar holati tahlil qilindi. Bu boradagi ulkan imkoniyatlar va ulardan foydalanish bo'yicha vazifalar ko'rsatib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20 sentabr kuni Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon hamda Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan telefon orqali muloqot qildi. Uch mamlakat yetakchilari yaqinda Tojikiston-Qirg'iziston chegarasida ro'y bergan fojiali voqealar bilan bog'liq masalalarni muhokama qildilar. Davlatimiz rahbari insonlar qurbon bo'lgani munosabati bilan chuqur hamdardlik bildirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20 sentabr kuni o'zining iqtisodiy taraqqiyot, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatchisi Suma Chakrabartini qabul qildi. Uchrashuvda mamlakatimizdagi iqtisodiyot va boshqaruvni isloh qilish doirasida erishilgan natijalar va bu boradagi kelgusi rejalar ko'rib chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 21 sentabr kuni kimyo sanoatida erishilgan asosiy ko'rsatkichlar va rejalashtirilgan loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

22 sentabr kuni Nurafshon shahrida Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev qatnashdi. Sessiyada Toshkent viloyatiga hokim tayinlash bo'yicha tashkiliy masala ko'rib chiqildi. Prezidentimiz 2021 yil noyabr oyidan buyon Toshkent viloyati hokimi vazifasini bajarib kelayotgan Zoyir Toirovich Mirzaev nomzodini viloyat hokimi lavozimiga tavsiya etdi. Kengashda uning nomzodi Toshkent viloyati hokimi vazifasiga tasdiqlandi.

## Telekommunikatsiya infratuzilmasi yanada rivojlantiriladi, aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatish yaxshilanadi

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi markaziy apparati, tizimdagi korxonalar, tashkilot va ta'lim muassasalari rahbarlari ishtirokida 20-sentabr kuni vazirlik Hay'atining kengaytirilgan majlisi bo'lib o'tdi. Yig'ilishni AKT vaziri, Hay'at raisi Sh.Shermatov olib bordi.



Kengaytirilgan majlisda Prezidentning "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash va u bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ijrosi ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda birinchi navbatda O'zbekiston Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan va bajarilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida hisobotlar berildi.

Yig'ilish davomida "O'zbektelekom" AK bosh direktorining telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish, sohaga investitsiyalarni kengroq jalb etishni ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar xususida hisoboti tinglandi.

Shu bilan birga, "UMS" MCHJ, "Unitel" MCHJ, "Coscom" MCHJ kompaniyalari vakillarining ham hisoboti eshitilib, amalga oshirilgan va yil yakuniga qadar rejalashtirilgan ishlar to'g'risida ham ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, joylarda telekommunikatsiya tarmoqlarini sifatli va barqaror ishlashi, aholini hamda davlat tadbirlari o'tkaziladigan davrlarda ularning uzluksizligini ta'minlashi qay darajada amalga oshirilayotgani aytib o'tildi.

Majlisda ko'tarilgan masalalar yuzasidan vazirlikning tegishli hududiy boshqarmalar rahbarlarining fikr-mulohazalari ham tinglandi.

Bundan tashqari, yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 26-iyuldagi Farmonida joriy etilgan yangi tartib va talablar hamda ijro intizomini mustahkamlashda rahbar va xodimlarning mas'uliyatini oshirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Shu bilan birga, AKT vaziri Sh. Shermatov Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yil 19-sentabr kuni bo'lib o'tgan mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishida turizmni rivojlantirish bo'yicha berilgan topshiriqlarini ham aytib o'tib, HoReCa yo'nalishida aholi va yurtimizga tashrif buyurgan turistlariga qulayliklar yaratish uchun uzluksiz internet bilan ta'minlash borasida bir qancha topshiriqlar berdi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

### Tashrif

## Ko'kdalada IT-Park



Shu kunlarda O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sherzod Shermatov sohada olib borilayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida Qashqadaryo viloyatida bo'lib turibdi.

Soha rahbarining xizmat safari viloyatda yangi tashkil etilgan Ko'kdala tumanida barcha aloqa korxonalarini joylashadigan IT-Park

ob'yektining qurilish jarayonlari bilan yaqindan tanishishdan boshlandi.

Ta'kidlash joizki, Ko'kdala tumanida IT-Park filialining tashkil etilishi Qashqadaryo viloyatida AKT sohasida xizmatlar ulushini ko'tarish va viloyatning eksport salohiyatini oshirish, yoshlarga yuqori daromadli yangi ish o'rinarini yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tanishuv jarayonida Sh.Sher-

matov qurilayotgan IT-Park filialida ishlarni tizimli amalga oshirish, tumanda IT eksport hajmini yo'lga qo'yish, yoshlarga munosib ish o'rinarini yaratish, shuningdek, BPO va KPO xizmatlar yo'nalishida markazlar faoliyatini ham tashkil etish bo'yicha topshiriqlar berdi.

O'z navbatida, qurilayotgan ob'yektlarda ishlarni jadallashtirish va ularning sifatli qurilishini ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar yuklandi.

## Ilg'or raqamli texnologiyalar

## Koreya - O'zbekiston: Kelajakdagi hamkorlik yanada kuchaytiriladi

Koreyaning Seul shahrida 19-sentabrdan 21-sentabrgacha "Ilg'or raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda davlat xizmatlarini taqdim etish" dasturi tashkil etildi.

Ushbu dasturni tashkil etishdan asosiy maqsad - ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda aholiga yanada qulayliklar yaratish uchun elektron davlat xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Koreya tajribasi bilan tanishish hamda ishtirokchi davlatlar tajribasida ushbu yo'nalishdagi muvaffaqiyatli natijalarini qo'llashdan iborat.

Shuningdek, Koreyada davlat xizmatlariga innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish va ushbu jarayonlar bilan tanishtirish, ishtirokchi davlatlar o'rtasida bu sohada o'zaro ma'lumot va tajriba almashish, Koreya hamda ishtirokchi davlatlar o'rtasida kelajakdagi hamkorlikni yanada rivojlantirishni mustahkamlash maqsad qilingan.

Mazkur dastur davlat xizmatlari bo'yicha Ostona xab (BMTning Qozog'istondagi bilim va tajriba almashish bo'yicha plat-

formasi) tomonidan Koreya Respublikasining ichki ishlar va xavfsizlik vazirligi hamda Axborot jamiyati milliy agentligi (NIA) bilan hamkorlikda o'tkazilib, unda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va "Elektron hukumat" loyihalarini boshqarish markazi DM rahbar-xodimlari ishtirok etdi.

Shu bilan birga, dastur doirasida Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondan ushbu sohaning mas'ul rahbar-xodimlari ham qatnashdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekistonda Elektron hukumatni rivojlantirish istiqbollari" mavzusida alohida taqdimot o'tkazildi. Unda mamlakatimizning bu sohada qonunchilik bazasini takomillashtirish, telekommunikatsiya infratuzilmasi va kompleks axborot tizimlarini rivojlantirish, elektron xizmatlar ulushini

oshirish, muqobil identifikatsiya tizimlari, ma'lumotlarni qayta ishlash markazi imkoniyatlari hamda kadrlar tayyorlash va salohiyatini oshirish bo'yicha yurtimizda olib borilayotgan ishlar va islohotlar haqida atroflicha ma'lumot berildi.

Dastur doirasida Axborot jamiyati milliy agentligining (NIA) prezidenti Jonsung Xvan, Davlat xizmatlari bo'yicha Ostona xab raisi Alixan Baymenov, Koreya Respublikasining ichki ishlar va xavfsizlik vazirligining raqamli hukumat sohasida hamkorlik bo'limi direktori Sonju Son ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi.

Dasturda ishtirokchi davlatlardan kelgan mutaxassislar Raqamli texnologiyalar hukumatining ko'rgazmalar zali, ID-kartalarni chop etish hamda ular bilan ishlash korporatsiyasi, Axborot resurslari milliy xizmati hamda An'yan shahridagi "Aqli shahar" markaziga tashrif buyurishdi.



## Radioxalaqitlar bartaraf etilmoqda

"O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasi Samarqand viloyati hududiy inspeksiyasi va viloyat Elektromagnit moslashuv xizmati hamkorligida radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalarni O'zbekiston Respublikasi hududida olish (berish), loyihalash, qurish (o'rnatish), foydalanish hamda chet eldan olib kirish tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni tashkil etish bo'yicha Samarqand viloyatida radiomonitring va tashqi kuzatuv tadbirlari o'tkazildi.

Radiomonitring tadbirlari natijasida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan muvofiqlik sertifikatlariga ega bo'lmagan hamda Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan mobil aloqa operatorlarining tayanch baza stansiyalariga radioxalaqitlar hosil qilib foydalanilayotgan 23 dona retranslyator qurilma (repeater)lari aniqlandi.

Hududiy inspeksiya va Elektromagnit moslashuv xizmati xodimlari mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalari egalari bilan uchrashib, ushbu qurilmalardan O'zbekiston Respublikasi Radiochastotalar bo'yicha Respublika Kengashi (RChRK)ning 2022-yil 23-avgustdagi 707-sonli qarorida ko'rsatib o'tilgan texnik shartlar bajarilganda (shartlarga mos kelganda) radiochastota organlarining radioelektron vositalarni sotib olish (berish) va (yoki) o'rnatish (qurish) uchun va radioelektron vositalardan foydalanish ruxsatnomalarini rasmiylashtirilmagan holda ikkilamchi asosda foydalanishga ruxsat etilishi tushuntirildi.

Mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalari egalari mazkur qurilmalarni ishlatish talablarini bilmaganligi, berilgan tushuntirishlardan qoniqish hosil qilganligi va ushbu mobil kuchaytirgichdan boshqa foydalanmasliklarini ma'lum qildilar. Shundan so'ng, retranslyator qurilmalari joyida egalari tomonidan yechib olini va tadbir ishtirokchilari tomonidan ogohlantirish dalolatnomalari rasmiylashtirildi.

Ushbu tadbirlar natijasida mobil aloqa operatorlarining abonentlariga sifatli ovozi aloqa va mobil internet xizmatlarini ko'rsatishda, ularning tayanch baza stansiyalariga ta'sir qilayotgan radioxalaqitlar bartaraf etildi.

**A.OBLOQULOV,**  
"O'zkomnazorat"  
Samarqand viloyati  
hududiy inspeksiyasi  
yetakchi inspektori

## Hamkorlik ufoqlari

## Ikki tomonlama imkoniyatlar

Joriy yilning 19-sentabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialiga Malayziya Terengganu universiteti (Universiti Malaysia Terengganu (UMT))ning bir guruh professor-o'qituvchilari tashrif buyurishdi.



Ikki tomonlama uchrashuvni TATU Samarqand filiali direktori Zayniddin Qarshiyev kirish so'zi bilan ochib, mehmonlarga filial faoliyati, ilmiy salohiyati, fakultet hamda kafedralari, professor-o'qituvchilari va talabalari to'g'risida qisqacha ma'lumot berdi. Mazkur ikki davlat universitetlararo hamkorligi kelajakda har ikkala tomon uchun ham katta imkoniyatlar yaratishini qayd etdi.

Shundan so'ng, UMT universitetining o'quv ishlari va xalqaro munosabatlar bo'yicha prorektori Muhammad Zamriy bin Ibrahim Terengganu universiteti haqida elektron slaytlar asosida to'liq ma'lumot berib o'tdi.

Tashrif davomida mehmonlar

TATU Samarqand filiali faoliyati, talabalar uchun yaratilgan sharoitlar, inkubatsiya va akseleratsiya, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlari faoliyati bilan yaqindan tanishdi, kelgusida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali, ilmiy ishlar bo'yicha hamkorlik, talabalar va o'qituvchilar, ilmiy va texnik hujjatlar almashinuvi, kompyuter muhandisligi yo'nalishi kabi masalalar muhokama qilindi.

Shuningdek, tadbirda Malayziyaning Terengganu universiteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari professor Burhonudin bin Muhammad Yusuf, tayyorlov va uzluksiz ta'lim markazi direktori o'rinbosari, "Matematika fani va informa-

tika" jurnalining bosh muharriri Zabidin bin Salih va uning rafiqasi Mariyaxonim, filialning "Amaliy matematika" kafedrasida dotsenti Zayniddin Eshquvatovlar hamkorlik ufoqlarini kengaytirish masalalarida o'zlarining foydali fikrlarini bildirdilar.

Ta'kidlash joizki, Malayziya Terengganu universiteti QS World University Rankingsda 1001-1200-o'rinlarni egallab kelmoqda. UMTda turli kurslarni taklif qiluvchi 11ta maktab mavjud (6 fakultet, 4 institut va bir markaz). Universitet bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta'lim beradi. Bundan tashqari, UMT to'rtta tadqiqot institutiga ega bo'lib, ularda aspirantlar biotexnologiya, akvakultura, okeanografiya, matematika, mejnegment va innovatsion texnologiyalar sohaslarida tadqiqot olib borishadi. Universitet butun dunyodan talabalarni qabul qiladi va chet elda yaxshi o'qish tajribasini taqdim etadi.

**Abdug'afur HOTAMOV,**  
TATU Samarqand filiali  
matbuot kotibi

Haydar BAGIROV:

# O'zbekiston qalbimda alohida o'rin tutadi!..

Ruknimizning bu galgi qahramoni Livandagi "Universal Homes LTD" kompaniyasi rahbari Haydar BAGIROV bo'ldi



## Bolaligimdan minnatdorman

O'zbekistonning o'ziga xos tarixiy va madaniy maskanlaridan biri – Samarqandda tug'ilganman. Aytishim mumkinki, bolaligim juda ajoyib o'tgan. Oilam bilan butun SSSR bo'ylab sayohat qilish, bir muncha vaqt Moskva, Belarus va Sochida yashash baxtiga muayassar bo'lganman. Bolaligimda butun Yevropa bo'ylab sayohat qildim va ko'p narsalarni o'rgandim. Garchi o'sha yillari SSSRda harakatlanish cheklovlari mavjud bo'lsa-da, xayriyatki, bu menga ta'sir qilmagan.

1992-yil oilamiz Birlashgan Arab Amirliklariga ko'chib o'tdi, u yerda darhol maktabda, keyin esa universitetda muqobil ta'lim tizimiga qo'shilishim kerak edi. Ochiq'i, bu nafaqat O'zbekistondagi, balki barcha postsovet mamlakatlaridagi ta'limdan keskin farq qilardi.

Men mintaqadagi eng nufuzli va go'zal universitetlardan biri bo'lgan Sharja Amerika universitetiga o'qishga kirish sharafiga muayassar bo'ldim. Amerika ta'lim tizimi e'tirof etilgan, shuning uchun mening tanlovim ushbu universitetga to'g'ri keldi. O'z biznesim bo'lishini istagan ota-onamning maslahati bilan oliygohning "Biznes boshqaruvi" dasturini tanladim.

Bugun dunyo juda o'zgarimoqda. O'zbekistondagi aksariyat maktab va universitetlarda shunday yuqori standartlar mavjudki, sifatli ta'lim olish uchun boshqa joyga borishning ham hojati yo'q. Chet elga sayohat qilish har doim ajoyib, chunki ular insonning hayot ufqlarini kengaytiradi.

## Hozir ham ta'lim haqiqiy hayotga mos kelmaydi

Universitetda olgan bilimlarim biznes faoliyatimda bir necha bor yordam berganiga qaramay, men yoshlarga muhandis, uchuvchi, arxitektor, stomatolog, shifokor va dasturchi kabi kasblarni tanlashni tavsiya qilgan bo'lardim.

To'g'ri, men mintaqadagi eng yaxshi G'arbiy universitetda o'qish baxtiga muayassar bo'ldim. Biroq, shaxsiy fikrimcha, G'arb ta'lim tizimi yuqori darajada emas. Men qiyin dastur tufayli emas, balki doimiy siqilish va elementar mantiqiy yetishmasligi tufayli o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelganman. G'arbiy ta'lim modeli men uchun kognitiv bilim va real holatlar bo'yicha treninglar yetishmadi. Umuman, 2000-yillardagi ta'lim tizimi ancha eskirgan.

Hozir ham ta'lim haqiqiy hayotga mos kelmaydi. Agar otamning hayotiy tajribasi bo'lmaganida, faqat universitet bilimlari bilan muvaffaqiyatga erisha olmasdim, deb o'ylayman. Yana shuni qo'shimcha qila olamanki, bizning dunyomiz yanada dinamik bo'lib bormoqda va eski o'qitish usullari global islohotga muhtoj. Bu dunyodagi eng nufuzli universitetlarga ham tegishli.

Subhatdoshimiz 1984-yil Samarqand viloyatida tug'ilgan. Keyinroq uning oilasi Birlashgan Arab Amirliklariga ko'chib o'tadi. Natijada, u o'rta ta'limni Dubaydagi Chouiefat xalqaro maktabida davom ettiradi. Keyinroq, Sharja Amerika universitetining "Biznes boshqaruvi" fakultetida tahsil oladi.

## Ertaga hamma narsani yo'qotishingiz mumkin

Otam muvaffaqiyatli biznesmen, undan ko'p narsalarni o'rgandim. Men nihoyatda omadli insonman, deb ayta olaman, chunki otamning o'tirmishdagi xatolaridan saboq olishga muvaffaq bo'ldim. Natijada, u orqali juda ko'p tajriba va bilimlar bilan o'z karyeramni boshladim. Ishonamanki, biznes hamma uchun ham mos emas, boisi u juda xavfli soha.

Bugun siz o'nlab million dollar ishlab olishingiz, ertaga esa hamma narsani yo'qotishingiz mumkin. Xodim sifatida martaba qilish ancha barqaror va xavfsizroq. Agar sizda katta ambitsiyalar bo'lsa, biznes sizning sohangizdir.

## Livan tizimi eng noyob bo'lib tuyuldi

Garchi dunyoning ko'p joylarida biznes olish imkoniyatiga ega bo'lsam ham, Livan tizimi menga eng noyob bo'lib ko'rindi. Avvaliga buni tushunish qiyin edi, lekin Livanda yashab, bu yerda biznes yuritish uchun juda qulay sharoitlar yaratilganiga guvoh bo'lasiz. Livan har doim Fors ko'rfazi mamlakatlarida yuqori lavozimlarga taklif qilingan iste'dodlari va professionalari bilan mashhur bo'lgan. Livanda meni hayratga soladigan narsa bu nafaqat ajoyib tog' -chang'i va plyaj kurortlariga ega bo'lgan g'ayrioddiy tabiati, balki odamlarning qiziqarli turmush tarzi va mentalitetidir. Men livanlik kabi professional bilan ishlashni juda xohlardim, shuning uchun "Universal Homes LTD"ning Bosh ofisini shu yerda ochdim. Aytmoqchimanki, Livanda ishlash haqiqiy zavq.

Kompaniyamiz yirik ishlab chiqaruvchilar bilan turarjoy va tijorat loyihalari bo'yicha hamkorlik qiladi. Xususan, biznes strategiyalarini ishlab chiqishda ko'maklashamiz.

## Raqobatda faqat afzalliklarni ko'raman

Dunyo iqtisodlarining aksariyati kapitalistik tizimga o'tdi. Muvaffaqiyatga erishish uchun siz unga moslasha olishingiz kerak. Kapitalizm bizga raqobatni o'rgatdi, raqobat esa, o'z navbatida, tovarlar va xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Shaxsan men raqobatda faqat afzalliklarni ko'raman. Ya'ni, o'zingni, bilimingni sinab ko'rish, pirovardida yaxshiroq xizmat ko'rsatish uchun imkon chegaralarini bosib o'tish. Raqobatchilardan ustunlik hissini hech narsa bilan solishtirib bo'lmaydi.

Hamfikrlar umumiy maqsadga erishish uchun pul emas, balki yaxshiroq bo'lish uchun birlashganda, inson tafakkurining kuchi nimaga qodir ekanligiga aql bovar qilib bo'lmaydi. Pulga intilish kamdan-kam hollardagina muvaffaqiyatga olib keladi.

Raqobat biznes uchun yaxshi. Siz undan qo'rqmasligingiz lozim. O'z biznesini ochgan odamlar o'zlari boshlayotgan tavakkalchiliklarini yaxshi bilishadi. Shaxsan men original biznes-rejani, hatto eng mohir strategiyani ham hech qanday tuzatishlarsiz amalga oshirilganini ko'rmaganman. Fikrimcha, biznesdagi qiyinchiliklarni erta aniqlashga odatlanish zarur.

## Moslashuvchanlik muvaffaqiyat kaliti

Ba'zi odamlar muammolar va qiyinchiliklarni salbiy narsa deb bilishadi. Hech qachon muammoni unutilish uchun tuzatishga urinish kerak. Qanday sharoitlarda bu holat yana takrorlanishi mumkinligini tasavvur qilish va shu asosda kelajakda shunga o'xshash qiyinchiliklarni oldini olish uchun biznesga yondashuvni to'g'rilash samarali hisoblanadi.

Tadbirkor risklarni hisoblab, bozor sharoitiga moslasha olishi kerak. Biznes-reja, albatta muhim, ammo moslashuvchanlik muvaffaqiyat kalitidir.

Faoliyatda faqat moliyaviy ma'lumotlarga tayanishning o'zi yetarli emas, tahlil qila bilish ham muhimdir. Ma'lumotni olganingizda u qoida tariqasida o'z ahamiyatini yo'qotadi. Har kuni barcha tovarlarning narxlarini kuzatib borish va inqirozli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish kerak. Agar siz o'z vaqtinigizni global tahlillarni kundalik o'rganishga tayyor bo'lmangiz, unda biznes siz uchun emasligi aniq. Tahlillarga yangiliklar, tovarlar, valyuta kursining o'zgarishi, yangi qonunlar, biznes yuritayotgan mamlakatning moliyaviy ahvoli kabilarni kiritish mumkin.

## Amalga oshirib bo'lmaydigandek tuyulgan orzudan boshlandi

Menimcha, O'zbekiston barqaror iqtisodiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tmoqda. Bularning barchasi mamlakat Prezidentining oqilona va adolatli siyosati tufayli amalga oshmoqda. Poytaxt Toshkent hozir rivojlanish avtopilotida. Bundan tashqari, Samarqand, Buxoro, Farg'ona va boshqa shaharlarda asosiy infratuzilma loyihalari amalga oshirildi, bu haqiqatdan ham ulkan yutuqdir. Endi kattaroq va ulug'vor loyihalarni amalga oshirish vaqti kelgan. O'rtacha turmush darajasidan qoniqmaslik, aksincha, dunyoning eng yaxshi shaharlariga borish, katta orzu qilishdan qo'rqmaslik, tanqidiy fikrlash va muvaffaqiyatga intilish lozim.

Masalan, dunyo turizm va texnologiya markazi, shuningdek, boylik jamlangan Dubayni olaylik. Dubayning muvaffaqiyati eng yaxshilarning eng yaxshisi bo'lish va o'z aholisi uchun dunyoning boshqa hech bir joyida uchramaydigan yashash sharoitlarni yaratish haqidagi dadil tasavvur va amalga oshirib bo'lmaydigandek tuyulgan orzudan bosh-

landi. Ideal shahar haqidagi bu tasavvur 2006-yilda, mamlakatning eng yuqori xalqaro iste'dodlari kela boshlaganida amalga oshdi. Olti-sakkiz yilga yetmay ular Dubayni etak shahriga aylantirishdi. Katta orzu qilish va rejalarini amalga oshirishga intilish imkonsiz narsani amalga oshiradi. Men shaharning aql bovar qilmaydigan o'zgarishiga guvoh bo'ldim va bevosita ishtirok etdim. Dubay va Abu-Dabining asosiy muvaffaqiyat omili shundaki, mamlakatning asosiy lavozimlariga dunyoning turli burchaklaridan mutaxassislar taklif qilingan, ular o'z maqsadlariga erishish uchun muhim bilim va tajriba almashgan.

## Qanchalik ko'p xato qilsa, shunchalik tajribali bo'ladi

O'ylashimcha, muvaffaqiyatli odamlarning eski intervyularini tomosha qilish ancha qiziq va foydaliroq. Muhimi, so'zlarning o'zi emas, balki ularning ma'nosi. Misol uchun, agar siz Apple asoschilaridan biri Stiv Jobs intervyularini ko'rsangiz, 80-90-yillarda u o'z davri uchun juda ilg'or bo'lgan narsalar haqida gapirganini sezasiz. U vaqt mashinasini yaratib, 2020-yildan ortga qaytgandek tuyuladi. Uning tafakkuri zamondoshlaridan juda farq qilgan. Bu hatto texnologiya haqida emas, balki biznes yuritish yondashuvi va boshqaruv modeli haqida. Bu sizni kamroq narsaga rozi bo'lmaslikka ilhomlantiradi. Hech kim buni qilmasa ham, yangi va yaxshiroq narsaga intiling. Gap shundaki, afsonalarni tomosha qilish, ulardan ibrat olish aksariyat kitob yoki filmlardan ko'ra qimmatliroq.

Inson qanchalik ko'p xato qilsa, shunchalik tajribali bo'ladi. Aqlli odamlar boshqalarning xatolaridan o'rganadilar, ularni o'zlari takrorlamaslikka harakat qiladilar.

## O'zbekiston qalbimda alohida o'rin tutadi

Menimcha, hayot faqat biznes va puldangina iborat emas. Ish, oila, sayohat va ochiq havoda dam olish o'rtasida muvozanatni saqlash muhimdir. Kuninga o'n soat ishlashga majbur bo'lgan paytlarim bo'lgan. Endi bu kerak emas, chunki men bir xil natijaga kamroq vaqt ichida erisha olaman. Bugun kuniga to'rt soat ishlayman. Qolgan vaqtimni tabiat qo'nyida o'tkazaman, chang'ida uchaman yoki oilam bilan vaqt o'tkazaman. Eng so'nggi sevimli mashg'ulotlarimdan biri – ov qilish.

Ko'p yillardan buyon O'zbekistondan uzoqda bo'lishimga qaramay, u mening qalbimda alohida o'rin tutadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar, Prezidentning oqilona siyosati tufayli biz O'zbekistonga sarmoya kiritib boshladik. Umid qilamizki, vaqt o'tishi bilan bizning investitsion portfelimiz faqat oshadi.

Nurillo TO'XTASINOV subhatlashdi

## HUAWEI И ZTE ЗАКЛЮЧИЛИ КОНТРАКТЫ С УЗБЕКИСТАНОМ БОЛЕЕ ЧЕМ НА \$500 МЛН.



Узбекистан и Китай заключили на полях саммита ШОС инвестиционные и торговые соглашения на \$15 млрд. В их число входят договорённости с Huawei и ZTE. Глава Мининфокома Шерзод Шерматов и представители телеком-отрасли провели переговоры с руководством китайских корпораций 14 сентября в Самарканде.

На встрече «Узбектелеком» представил проекты по модернизации инфраструктуры связи в республике и расширению сотрудничества. Китайская сторона выразила интерес к углублению «взаимовыгодных партнёрских связей».

По итогам встречи Huawei и ZTE подписали с «Узбектелекомом» 8 контрактов. Их общая стоимость составляет \$506,8 млн,

отметили в Мининфокоме.

Китайские компании займутся реализацией четырёх инвестиционных проектов в западных и восточных регионах Узбекистана. В частности, они обеспечат высокоскоростной мобильный интернет вдоль железных и автодорог, а также повысят качество соединения для местных жителей.

Также Huawei и ZTE будут устанавливать базовых станций 5G в Ташкенте и областных центрах. Помимо этого, китайцы займутся расширением пропускной способности сетей передачи данных.

## SCOPE INVESTMENT ПРЕДЛОЖИЛА СДЕЛАТЬ ГОРОДА УЗБЕКИСТАНА «УМНЫМИ»



Компания Scope Investment интересуется внедрением технологий «умных городов» в Узбекистане. Об этом сообщила пресс-служба Мининфокома.

Первый замглавы министерства Олег Пекос встретился с делегацией фирмы из ОАЭ. Стороны обсудили возможности реализации технологических решений компании для совершенствования систем управления городами.

Компания сейчас изучает возможности для инвестиций в ключевые сферы, чтобы сделать крупные города Узбекистана

«умными». Инвесторы выразили готовность внедрить в Ташкенте, Самарканде и Бухаре сервисы, сертифицированные в США и ЕС.

В частности, Scope Investment предложила установку умных светофоров для более эффективного управления дорожным движением.

## СОСТАВЛЕН РЕЙТИНГ РАЗВИТИЯ ИКТ В РАЗРЕЗЕ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА

С целью оценки состояния развития ИКТ в разрезе регионов Узбекистана эксперты Института прогнозирования и макроэкономических исследований (ИПМИ) составили рейтинг регионов Узбекистана на основе индекса развития ИКТ согласно методологии ITU.

За основу расчёта был выбран Индекс развития ИКТ (IDI), который состоит из 11 показателей, разделённых на 3 группы: доступ к ИКТ, использование ИКТ и навыки ИКТ.


Индекс рассчитан за 2015–2021 годы. Получены следующие результаты:

Среднее значение индекса по Узбекистану выросло с 6,04 в 2015 году до 6,96 в 2021 году.

В 2021 году в тройку лидеров входили такие регионы как г.Ташкент (значение индекса – 9,28), Навоийская (7,41) и Бухарская (7,06) области.

За исследуемый период наибольший рост индекса отмечен в Хорезмской (+1,20), Кашкадарьинской (+1,18), Наманганской (+1,15) областях и в Республике Каракалпакстан (+1,12).

Примечательно, что за рассматриваемый период во всех регионах Узбекистана кроме города Ташкента наблюдается рост абсолютного показателя индекса. Падение индекса в Ташкенте может объясняться первоначальными высокими показателями по сравнению с остальными регионами. Но, несмотря на это в 2021 году Ташкент сохранил ощутимое превосходство по рейтингу.



## STARLINK СТАЛ ДОСТУПЕН НА ВСЕХ КОНТИНЕНТАХ ЗЕМЛИ


SpaceX вывела на орбиту еще 54 спутника Starlink. Общее количество аппаратов превысило 3 тыс. Интернет-сеть доступна на всех континентах Земли, заявил основатель компании Илон Маск.

«Starlink теперь активна на всех континентах, включая Антарктику», — написал Илон Маск в своём Twitter.

В SpaceX говорили, что сеть позволяет обеспечить доступ в интернет со скоростью 1 Гбит в секунду (стандарт 5G). Планировалось, что в нее войдут 12 тыс. спутников, но в 2019 году было решено запустить дополнительно 30 тыс. аппаратов.

## В TELEGRAM ПОЯВИЛИСЬ НОВЫЕ СПОСОБЫ АВТОРИЗАЦИИ

В последнем обновлении Telegram добавил новые способы авторизации: через Gmail и Apple ID. Пользователи смогут формировать ссылки на свои профили. А новые реакции будут доступны не только владельцам Premium.



В Telegram добавили новые способы авторизации — «Войти с помощью Apple» и «Войти с помощью Google», сообщают в блоге мессенджера. Раньше регистрация проводилась только по номеру телефона.

Новые реакции, до этого доступные только владельцам Premium, стали активны для всех пользователей. Но обладатели подписки могут использовать индивидуальные эмодзи и добавлять их в статус.

Теперь любой публичный адрес @username в Telegram можно передать в виде ссылки username.t.me.



## ЧТО ТАКОЕ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИИ?

Вопрос: что такое телекоммуникации?

Ответ: в соответствии со статьей 2 Закона Республики Узбекистан «О телекоммуникациях», телекоммуникациями являются передача, прием, обработка сигналов, знаков, текстов, изображений, звуков или иных видов информации с использованием проводных, радио, оптических или других электромагнитных систем.



## INTERNETGA ULANISH UCHUN KIM QANCHA PUL TOPISHI KERAK?



Dunyo bo'yicha davlatlarning internet ta'minoti va unga to'lanadigan haq aholining necha soat ishlashi bilan solishtirilgan holda o'rganildi.

Masalan, Kot-d'Ivuar aholisi bir oylik keng polosali internetga ulanish haqini to'lash uchun 65 soatdan ko'proq ishlashlari kerak. Mazkur mamlakat internetdan foydalanish imkoniyati reytingida oxirgi o'rinni egalladi.


Reytingning birinchi qatorlarini egallagan Isroil va Armanistonda uy interneti uchun to'lovni amalga oshirish uchun 20 daqiqadan kamroq vaqt ishlash kerak. Eng arzon mobil internet ham Isroildadir.

Rossiya internetga kirish imkoniyati bo'yicha mamlakatlar reytingida oltinchi o'rinda turadi. Internetga ulana olish uchun bu yerda yarim soatdan bir oz ko'proq ishlashingiz kerak. Mobil telefon uchun - ikki daqiqadan bir oz ko'proq. Bu bo-

rada Germaniya uchinchi, Singapur to'rtinchi, Yaponiya esa beshinchi o'rinni egalladi.

Surfshark xizmati baholashda keng polosali va mobil internet uchun eng arzon tariflarning mamlakatdagi o'rtacha soatlik ish haqiga nisbatini o'lhadi.

## IPHONE 14 NARXI TUSHIB KETDI



Xitoyda o'tgan jumadan boshlab iPhone 14 sotuvga chiqdi, lekin smartfonga talab pasaygani bois narxi tushib ketdi. Unga kam qiziqish bildirilayotganining sababi iPhone 13 bilan solishtirganda deyarli farqlanmasligidir.


Apple rasmiy saytidagidan ko'ra Xitoy bozorlarida ayfon ancha arzon sotilmoqda. Hozirda iPhone 14, iPhone 14 Plus, iPhone SE 3 va iPhone 13 mini xaridorlari juda oz. Kompaniya bundan xulosa qilgan holda iPhone 14 Pro va iPhone 14 Pro Max modellarini ko'proq ishlab chiqarishga qaror qildi.

Dushanba kungi narxlarga ko'ra 128 Gb flesh-xotiraga ega iPhone 14 rasmiy narxi 855 dollar bo'lsa, do'konlardan 840 dollarga olish mumkin. 256 Gb flesh-versiyasi Apple Store do'konida 985 dollar tursa, chakana sotuvchilar 940 dollarga sotmoqda. 512 Gb hajmli ayfonning narxi esa 1240 dollardan 1100 dollarga tushdi.

## BLUETOOTH ORQALI YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGIGA ERISHISH MUMKIN

Ford kompaniyasi haydovchilarni piyodalar borligidan ogohlantiruvchi texnologiyani ilgari surmoqda. Bu uchun smartfondagi Bluetooth kifoya.

Kompaniyaning yangi avtomobillari Ford Co-Pilot360 texnologiyasiga ega bo'ladi. U haydovchini




nafaqat piyodalar, balki velosipedchilar va samokatchilar borligidan ham ogohlantiradi. Agar haydovchi vaqtida kerakli chorani ko'rma-

sa, tormoz o'zidan o'zi harakatga keladi.

Texnologiyaning afzalliklaridan biri uning soddaligi va qo'shimcha apparatlar talab qilmasligidir. Undan hozirda hamma smartfonlar va deyarli barcha mashinalarda mavjud Bluetooth orqali yo'llarni xavfsiz qilish ko'zlanadi.

## PLAYSTATION 5 YANGILANADI



Sony kompaniyasi PlayStation 5 qurilmasining yangi versiyasini chiqarishni rejalashtiryapti. Endi unda almashuvchi diskovod bo'ladi. Chunki hozirda ko'pchilik foydalanuvchilar diskovodli turini afzal ko'rishmoqda.

Diskovodli PlayStation hozirgi PS5 modelidan apparat ta'minoti bo'yicha farqlanmaydi. Diskovod orqa paneldagi Type-C portiga ulanadi. Bu ishlamay qolganida osongina almashirish imkonini beradi.

Yangi qurilma 2023-yil o'rtalaridan ishlab chiqariladi, 2024-yil kuzidan bozor ko'radi. Narxi hozircha ma'lum qilinmadi.

## Xalqaro hayot

### QOZOG'ISTON PREZIDENTI YETTI YIL MUDDATGA SAYLANADI, POYTAXTGA OSTONA NOMI QAYTDI



Qozog'iston poytaxtiga Ostona nomi qaytarildi va mamlakat prezidenti bir marta yetti yillik muddatga saylanadigan bo'ldi. Tegishli qonunni Qozog'iston prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayev imzoladi.

Davlat rahbari "Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunini imzoladi, deyiladi rasmiy xabarda.

### SO'NGGI 12 YILDA TOJIKISTON VA QIRG'IZISTON CHEGARASIDA 250dan ZIYOD QUROLLI NIZO YUZ BERGAN



Ushbu raqamlarni Tojikiston tashqi ishlar vaziri Sodik Imomiy tilga oldi.

Imomiyning ta'kidlashicha, har ikki davlat hukumatlari demarkatsiya bo'yicha ishlarni davom ettirmoqda - 500 kilometrdan ortiq chegara chizig'i borasida kelishuvga erishil-

di. Biroq asosiy uchstaklar muammoligicha qolmoqda - oldinga siljish yo'q.

Qirg'iziston-Tojikiston chegarasidagi vaziyat juma, 16-sentabr kuni keskinlashgandi. SHHTning Samarqanddagi sammitida qatnashayotgan Qirg'iziston va Tojikiston prezidentlari chegaradagi vaziyat yuzasidan yuzma-yuz muzokara o'tkazgan va qo'shin hamda vositalarni to'qnashuv chizig'idan olib chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berishga kelishib olishgandi.

### MISR XORIJLIK TURISTLARNI YANGI TIZIM BILAN JALB QILMOQCHI




Misr xorijlik turistlarni yangi tizim bilan jalb qilmoqchi: xorijlik sayyohlar uchun Tax Free tizimi ishga tushiriladi. Bu haqda ATOR xabar berdi.

Mamlakat vazirlar mahkamasi Global Blue Egypt milliy kompaniyasiga asos solishga ruxsat berdi: Misrdagi barcha xalqaro aeroportlarda uning nuqtalari ochiladi. Ekspertlarning taxminicha, tizim birinchi bo'lib Sharm ash-Shayxda 2022-yilning noyabridan tajriba tariqasida ochilishi mumkin.

Turistlarga QQS qaytarilishi standart xalqaro sxema asosida amalga oshiriladi - mamlakattan ketishdan avval Tax Free maxsus kiosklarga murojaat qilinadi. U yerda 1 500 misr funti (77 dollar atrofida)dan ziyod qilingan xaridlar uchun pul olish mumkin.

### HINDISTONDA 23 KISHI CHAQMOQ URIB HALOK BO'LDI



Hindiston sharqidagi Bihar shtatida so'nggi bir necha kun ichida kamida 23 kishi, jumladan, 8 nafar bola chaqmoq urib halok bo'ldi.

Bir kunning o'zida 11 kishi (dalada ishlayotgan dehqonlar) osmondan kelgan ofat qurboni bo'ldi, dedi shtatning bosh vaziri Nitish Kumar.

Bihardagi 20ta tumanda sariq xavf darajasi e'lon qilindi. Odamlar yog'ingarchilik paytida ko'chaga chiqmaslikka chaqirildi.

### FAZODA ENG KO'P VAQT BO'LGAN INSON VAFOT ETDI



Bu haqda Roskosmos xabar berdi.

Polyakov fazoga ikki marta parvoz qilib, jami 678 sutka va 16 soatni kosmosda o'tkazgan. Birinchi parvozi 1989-yilda amalga oshirilgan, ikkinchisi 1994-yilning yanvaridan 1995-yilning martigacha qadar jami 437 sutka davom etgan: Polyakov "Mir" stansiyasida uzoq faoliyat ko'rsatib rekord o'rnatgan.

# HAYOTBAXSH ETGAN KASBIM

“O‘zbektelekom” AK Farg‘ona filialining Qo‘shtepa telekommunikatsiyalar bog‘lamasi 2020-yilning sakkiz oyida 590, 3 mln. so‘m, 2021-yili mos davrda 949, 6 mln. so‘m, shu yil sakkiz oylikda esa 1 mlrd. 893.8 sof daromad olishga erishdi. Ta‘kidlash o‘rinliki, bu yutuqlar zamirida bog‘lamada mehnat qilayotgan, vazifasidan qat‘i nazar, har bir xodimning zarbdorona mehnatlari yotibdi.

Shunday fidoyilardan biri filialda eng yaxshi payvandlovchi sifatida hurmat topgan Ulug‘bek USMONOVdir.

– Bilim yurtini tugallagan yillarim televizorda “Men kasbimni sevaman. Kasbim bilan faxrlanamam”, deganlarini eshitsam, ensam qotardi. Axir rizqingni kasbingdan topganingdan keyin, maoshingni olayotgan bo‘lsang, sevaman, deysanda. Qayoqqa borasan. Ishga kirgach, peshona teri to‘kib ishlash neligini bilgach, turgan gapki, bu gumonlarim tuman-day tarqab ketdi, – deydi Ulug‘bek Usmonov. – Mehnat fasliga kirganimda, o‘zimga o‘zim, sen yoshsan, xohlaysanmi–yo‘qmi, ishlaysan. Chunki, o‘z noningni o‘zing topib yeyishing shart. Ota-onangga bo‘qimanda bo‘lganing yetar, dedim. Shunday qilib ishlayverdim, ishlayverdim. Oldiniga har kuni tong azonda ishga yo‘l olish, kechgacha mehnat ichida qolib ketish... aqlga sig‘mas darajada mashaqatlarning mashaqqati bo‘lib tuyulgan bo‘lsa, bora-bora ishsiz tura olmaydigan bo‘lib qoldim. Ana shundaygina tumanimizdagi texnika kasb–hunar bilim yurtida o‘qitganlardan, ya‘ni o‘sha yillarda boshqarmamizni boshqargan Abduvohid Jo‘raboyev hamda bog‘lamamiz boshlig‘i Nurmuhammad Jo‘rayevdan minnatdor bo‘lganman va hali–xanuz ota-onam ham ularni duolar bilan eslashadi.

Eshitishimga qaraganda, shu uzoqni ko‘ra oladigan aziz ustozlarimiz bilim yurtida aloqa guruhi ochish tashabbusi bilan



chiqishgan va bu tashabbusni vazirligimiz qo‘llab–quvvatlab, tumanimizdagi bilim yurtini aloqa yo‘nalishidagi guruh uchun zarur bo‘lgan moddiy texnika vositalari bilan to‘la–to‘kis ta‘minlagan. Aytishlaricha, kadrlar yetishmovchiligi juda o‘tkir bo‘lgani bo‘lsidan guruh ochilgan va men shu guruhning baxtli o‘quvchilaridan biri bo‘lganman. Maktablardan texnikaga, elektrotexnikaga qo‘li keladigan yoshlar qatori meni ham shu guruhga tanlab olishgan. Mundoq o‘ylab qarasam, shu guruhning ochilishi mening kelajagimni belgilab bergan ekan. Guruhda Nargizaxon, Arabboy, Lochinbek, Farhodjon kabi adashmasam, 25 nafar yoshlar o‘qig-

anmiz. Guruhdoshlarim orasida kuchlilar ko‘p edi. Ular Toshkent elektrotexnika aloqa institutida (hozirgi TATU), Toshkent aloqa texnikumlarida o‘qishni davom ettirishdi va hamon sohamizda zo‘r muvaffaqiyat bilan ishlamoqda. Demochimanki, ustozlar ta‘lim–tarbiyasi sabab hammamiz sohaga sodiq qoldik. Ustoz Nurmuhammad Jo‘rayev hamda bilim yurtida saboq bergan Ra‘noxon opa Jo‘rayevalarning o‘gillarini sira unutmayman. Hamisha yodimda saqlab kelaman. Ular “Yoshlik mangu emas. Shamolday o‘tadi–ketadi. Har kuni o‘qishingiz, o‘rganishingiz zarur. Negaki, aloqachilik shunday sohaki, mutasil takomillashib, yangilanib boraveradi. Xushyor bo‘lmasangiz, mahoratni oshirib bormasangiz – dog‘da qolasiz”, deyishardi. Juda to‘g‘ri aytishgan ekan.

Yaqinda filialimizda tashkil etilgan o‘quv kursi darslarida bunga yana bir marta guvoh bo‘ldim. Darslarni filialning yetuk muhandislari Karomatxon Yarmatova, Yunus Kuramatov hamda Bahromjon Qodirovlar o‘tishdi. Telefoniya va internet xizmatlarida nosozliklarni bartaraf etish tartibi, nazorat muddatlari, rahbariy hujjatlarda belgilangan muddatlar to‘g‘risidagi bilimlarimiz boyidi. Meni, ayniqsa, GeO,WFM ilovasini ishlatish bo‘yicha yo‘riqnoma talablari mavzusi juda qiziqirdi va bu borada aniq ma‘lumotlarga ega bo‘ldim. Internet xizmatlariga ulanish texnologiyalari – xDSI,

FTT, GPON, IPTV xizmatlari va ularning tuzilishi, shuningdek, VPN, IP–manzil, VLAN haqidagi tushunchalarimiz va tasavvurlarimiz kengaydi. Wi-Fi router hamda SIP telefon qurilmalarini sozlashning nozik jihatlariga e‘tibor beradigan bo‘ldik. Modem–siz to‘g‘ridan–to‘g‘ri bog‘lanish, internetga tezlikni to‘g‘ri ulash va ularning o‘lchovlari turlarini bilib oldik. Bundan tashqari, optik tola–larni ODF, Patch–panel muftalarga to‘g‘ri montaj qilish, optik o‘lchash (Powermetr, Reflektometr, Lazer) va payvandlash jamlanmasi qurilmalaridan foydalanishni mukammalroq o‘rganganimiz juda soz bo‘ldi. Xullas, o‘quv kursi darslari tufayli bilim va tajribalarimiz ancha mustahkamlandi. Shiddat bilan rivojlanayotgan soha odamlari ekanligimizni yanada chuqurroq his etdik. Kuchimizga kuch, g‘ayratimizga g‘ayrat qo‘shildi. Dilimda o‘zimdanda, kasbimdan qoniqish tuyg‘ularini his etdim. Ehtimol, kasb bilan faxrlanish, g‘ururlanish deganlari shudir. Axir o‘zingiz ayting, menga joriy etilgan shu rizqni – hayotbaxsh etayotgan kasbni yaxshi ko‘rmay bo‘ladimi? Yo‘q, albatta!

Yaqinda, 25 yillik halol va sidqidil mehnatlarimgiz, soha rivojiga munosib hissa qo‘shganingiz uchun katta rahmat, deya “Tashakkurnoma” hamda pul mukofoti bilan taqdirlashdi. Ota-onamning xursadchiligi shu qadar ediki, filialimiz rahbariyati va yuqori tashkilotlarimiz e‘tiboridan boshim osmonlarga yetdi va sohaga ishga kirgan 1997–yil dekabr oyining butun fayzu tarovatli onlarini bir–bir esladim.

S.HAFIZOVA yozib oldi

## E‘lon

### O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma‘lum qiladi

Litsenziya berganlik uchun navbatdagi yillik davlat bo‘jini to‘lamaganligi munosabati bilan, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bo‘ji to‘g‘risida”gi qonuni ilovasining 33–bandi izoh qismiga, Vazirlar Mahkamasining 2022–yil 21–fevraldagi 80–sonli qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomning 40–bandiga asosan, “UZPAYNET” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining ma‘lumotlar uzatish tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanish va xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatiga 2017–yil 26–yanvarda berilgan AA seriyali 0006053 raqamli litsenziya amal qilishi 2022–yil 19–sentabrdan 10 kun muddatga to‘xtatildi.

Litsenziya berganlik uchun litsenziat to‘lashi lozim bo‘lgan davlat bo‘ji belgilangan muddatda to‘lanmaganligi sababli, O‘zbekiston Respublikasining “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib–taomillari to‘g‘risida”gi

qonuni 33–moddasiga, Vazirlar Mahkamasining 2022–yil 21–fevraldagi 80–sonli qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomning 49–bandiga muvofiq quyidagi:

“ARSENAL PROTECT” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining (Samarqand viloyati) mahalliy telekommunikatsiya tarmoqlarini loyihalashtirish va qurish bo‘yicha faoliyatiga 2021–yil 17–martda berilgan AA seriyali 0007113 raqamli;

“POWER-NET” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining (Toshkent shahri) mahalliy telekommunikatsiya tarmoqlarini loyihalashtirish va qurish bo‘yicha faoliyatiga 2021–yil 10–fevralda berilgan AA seriyali 0007099 raqamli;

“VERTICAL BRIDGE” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining (Toshkent shahri) mahalliy telekommunikatsiya tarmoqlarini loyihalashtirish va qurish bo‘yicha faoliyatiga 2019–yil 26–aprelda berilgan AA seriyali 0006741 raqamli;

“NEKTAR” xususiy korxonasining (Qashqadaryo viloyati);

– mahalliy telekommunikatsiya tarmoqlarini loyihalashtirish va foydalanish bo‘yicha faoliyatiga 2019–yil 7–iyunda berilgan AA seriya 0006753 raqamli;

– mahalliy telekommunikatsiya tarmoqlarini qurish bo‘yicha faoliyatiga

2018–yil 1–martda berilgan AA seriya 0006390 raqamli;

“EUROASIA INTERNATIONAL MARKETING” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining (Toshkent shahri);

– radiodasturlar tarqatish tarmoqlari xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatiga 2018–yil 18–iyunda berilgan AA seriya 0006498 raqamli;

– ma‘lumotlar uzatish tarmoqlari xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatiga 2018–yil 18–iyunda berilgan AA seriya 0006499 raqamli litsenziyalarni amal qilishi 2022–yil 19–sentabrdan bekor qilindi.



# Sybo Games

dunyo bo'ylab eng ko'p yuklab olingan mobil o'yinlarda birinchi

Sensor Tower dunyo bo'ylab eng ko'p yuklab olingan mobil o'yinlar top o'ntaligi ro'yxatini e'lon qildi. Unga ko'ra, Sybo Gamesning bu yil o'n yilligini nishonlayotgan Subway Surfers o'yini o'tgan oyda 26 million-dan ortiq yuklab olinishlar bilan umumiy ro'yxatda peshqadam bo'lgan va bu birinchi marta emas, o'yin o'tgan oyda ham birinchilikni qo'lga kiritgan.

Faxrli ikkinchi o'rinni esa Garenaning Free Fire nomli battle-royale janridagi o'yini

bir necha oydan beri band qilib kelmoqda.

Umumiy ro'yxatning top beshtaligi o'tgan oyga qaraganda ko'proq yuklab olinishlar bilan yuqori pog'onalarga ko'tarilgan Stumble Guys va Bridge Race o'yinlari, shu bilan birga, bu oygi ro'yxatga yangi qo'shilgan Dessert DIY o'yini bilan yakunlanadi.

Shuningdek, o'tgan oyning boshida chiqarilganiga qaramay, Blizzardning Diablo Immortal o'yini qisqa vaqt ichida dunyo bo'ylab eng ko'p yuklab olin-

gan o'yinlar qatoriga kirishga muvaffaq bo'lgan va garchi u umumiy ro'yxatning oxirgi o'rnini egallagan bo'lsa ham, App Store dan yuklab olingan o'yinlar ichida birinchi o'rinda turibdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan oyda App Store va Google Play Store o'yin do'konlaridan jami 4,6 milliard o'yinlar yuklab olish amalga oshirilgan va buning 18,4 foizi yoxud 844,8 million-dan ortig'i Hindistonga to'g'ri keladi.

## Gullar parvarishi



### ADENIUM PARVARISHI

"Gullar parvarishi" ruknimizning bugungi sonida Adenium guli yoki xalq tilida aytganda "cho'l atirguli" haqida ma'lumot beramiz.

Adenium Tailand hamda Osiyo mamlakatlarining cho'l hududlarida keng tarqalgan. Adeniumni siz urug'idan ko'paytirishingiz yoki o'zingizga yoqqan sortidan sotib olib parvarishlashingiz mumkin.

Adeniumlar o'ta yorug'liksevar, quyoshsevar gul bo'lgani uchun xona sharoitida buni hisobga olish kerak. Quyosh tushib o'tadigan yorug' derazalar oldiga qo'yilgani ma'qul. Ushbu gul 25-35 gradusli haroratda o'zini yaxshi his qiladi.

**Tuproq'i:** Sukkulentlar yoki kaktuslar o'stiriladigan tuproqqa ekish kerak. Tuprog'i o'ta yengil, uqalanuvchan, havo o'tkazishi yaxshi bo'lishi kerak. Adeniumlar kichkina tuvakda yaxshi rivojlanadi, 3 yoshigacha bitta tuvakda turgani ma'qul. Asosan bahor oylarida tuvakdan tuvakka o'tkaziladi.

**Sug'orish:** yozning issiq kunlarida ko'proq, qishda esa tuproq qurishiga qarab sug'oriladi. Me'yorida ortiq sug'orish ildiz qismining chirishiga olib keladi.

**Oziqlantirish:** turli xil o'g'itlar berish kerak, jumladan, biogumus, kaktuslar va sukkulentlarga beriladigan kompleks o'g'itlar, gullashiga yaqin kaliy-fosforli, monofosfat kaliya o'g'itlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Solijon ZOIROV

## Salomatlik

### Bo'g'imlardagi kutilmagan og'riq sababi aytiladi

Bo'g'imlardagi kutilmagan og'riqning sababini tibbiyot fanlari nomzodi, dietolog va gastroenterolog Rustam Sodiqov "Moslente" deb atadi.

Bu noqulaylik oddiy shakarni, jumladan, shirinliklar va gazlangan suvni ortiqcha iste'mol qilishdan kelib chiqishi mumkin. "Oddiy so'z bilan aytganda, qondagi ortiqcha glyukoza bizning oqsillarimizni yo'q qiladi va ularning molekularini yallig'lanishga sabab bo'ladigan og'ir moddalarga aylantiradi", deb tushuntirdi Sodiqov.

Bu mahsulotlar tananing holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, deb shifokor. Ular bo'g'imlarning mustahkamligi va elastikligini pasaytiradi, shu bilan birga, butun tayanch-harakat tizimining mo'rtligini oshiradi.



## Maslahat

### Qaysi tish pastalari salomatlik uchun xavfli?

Profilaktika va qarshiga qarshi tibbiyot doktori Natalya Zubaryovaning aytishicha, tarkibida triklozan, xlorgek-sidin, metronidazol va fluuorid mavjud tish pastalaridan muntazam foydalanish salomatlikka ziyon yetkazishi mumkin.

- Triklozanli tish pastalaridan butkul voz kechish kerak. U dastavval pestitsid bo'lgan, endi esa ishlab chiqaruvchilar kuniga foydalanishni taklif qilishyapti. Triklozan bevosita antibakterial ta'siridan tashqari, kanserogenlar ham hosil qiladi, - deydi mutaxassis.

Xlorgek-sidin va metronidazolli tish pastalaridan ham kunda foydalanish yaramaydi. Biroq yuqoridagilar orasida eng xavfli - fluuorid, u ishlab chiqarishdagi turli chiqindilardan olinadi. Neyrotoksin hisoblandi. Masalan, bunday pastaning bitta tyubigi yosh bola uchun zaharli dozaga aylanishi mumkin, deya ta'kidladi Zubaryova.



## Xabar

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEKNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

Bosh muharrir:

Abdug'ani ABDURAHMONOV

Tahrir Hay'ati:

Sherzod SHERMATOV (Hay'at raisi), Nazirjon HASANOV, Kommuna IRISBEKOVA, Alisher FAYZULLAYEV, Lutfullo TURSUNOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Usmonjon YO'LDOSHEV (Mas'ul kotib).

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egalari qaytarilmaydi.

Muallifning fikrlari tahririyat fikridan farqlanishi mumkin. Nashrimizdan ko'chirib bosilganda "Xabar" dan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Gazeta sahifalarini tayyorlashda internet materiallaridan ham foydalanildi. Bahosi kelishilgan narxda.

## MANZILIMIZ:

100000 Toshkent shahri, Amir Temur 1-tor ko'chasi, 2-uy (Mo'ljal Oloy bozori).  
Telefonlar: 71-234-18-59, 71-234-18-31.  
Faks: 71-234-17-91. E-mail: info@xabar.uz

Obuna indeksi — 228.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terildi va sahifalandi.

Dizayner: Asliddin BO'RIYEV.  
Navbatchi: Asliddin BO'RIYEV.



ISSN 2010-6424

Bosishga topshirildi — 17 °°  
Bosishga topshirish vaqti — 24 °°

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 0016 raqami bilan 2013-yil 23-iyulda ro'yxatga olingan.

Gazeta haftaning juma kuni chiqadi

Gazeta "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.  
**Manzil:** Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi 41-uy.

Γ-959 sonli buyurtma. Ofset usulida bosildi. Qog'oz bichimi A-3, hajmi 2 bosma taboq. **Adadi:** 2989

Viloyat muxbirlari:

Andijonda (74) 226-47-80

Buxoroda (99)854-7305

Jizzaxda (94) 199-95-64

Namanganda (91) 353-71-25

Navoiyda (79) 225-91-10

Nukusda 554-35-45

Samarqandda (91)557-84-44

Termizda (99)508-30-52

Toshkentda 234-18-59

Urganchda (97) 211-65-05

Farg'onada (73) 244-18-05

Qarshida (93)931-08-99